

فؤاد نعمة. ملخص قواعد اللغة العربية. – القاهرة، 1983. 3.

د. مكتبة :القاهرة – . الحديث اللغة علم ضوء في العربي النحو قواعد . الدين كمال على حازم . 4.

الآداب 2011

## **DAVLATIMIZDA BIZNES SOHASINING O’RNI, QAY DARAJADA RIVOJLANGANLIGI, BIZNES KELAJAK KASBI**

**Sharipova Ozoda Dilshat qizi**

*Davlat Universiteti IT hamda Biznes va savdo boshqaruvi fakulteti 1-bosqich  
talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biznes nima?, biznesning maqsadi, hands using boshqaruv maqsadi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mavzulari ochib berilyapti

**Kalit so'zlar:** pirovard natija, maqsad, kadrlar salohiyati, inflyatsiya jarayoni, Qo'shma korxona, aksiyadorlik, mafkura, mulkchilik

"Biznes" so'zi inglizcha so'z bo'lib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha so'z bilan aytganda kishilarni foyda olishga qaratilgan turli mehnat faoliyatidir.

Xorijiy adabiyotlarda biznes ta'rifini ko'p turlari mavjuddir. Insoniyat jamiyatining butun rivojlanish tarixi u yoki bu jihatdan doimo biznes bilan bog'liq bo'lgan.

Biznesmen (Tadbirkor) so'zi birinchi marotaba Angliya iqtisodiyotida XVIII asrda paydo bo'lib, u "Mulk egasi" degan ma'noni bildiradi. Jumladan, Adam Smit tadbirkorni mulk egasi sifatida ta'riflab, uni foyda olish uchun qandaydir tijorat g'oyasini amalga oshirish maqsadida iqtisodiy tavakkalchilikka boradigan kishidir, - deb ta'kidlaydi. Tadbirkorni o'zi, o'z ishini rejalashtiradi, ishlab chiqarishni tashkil etadi, mahsulotni sotadi hamda olgan daromadiga o'zi xo'jayinlik qiladi

Maqsad - bu muddao, murod, ya'ni u yoki bu niyatga erishmoq uchun ko'zda tutilgan mushtarak orzu. Aynan, shu maqsad kishi faoliyatini, o'z orzularini ushalishiga yo'naltiradi. Biz dastlab oldimizda turgan maqsadimizni aniqlab olamiz, so'ngra esa shu maqsadimiz:

- bo'lajak harakatlarimizni oldindan aniqlab beradi;
- faoliyatimizning ustuvor yo'naliшини belgilaydi;
- faoliyatimizni aniq soha, ishga yo'naltiradi;
- u yoki bu faoliyatimizning zarurlik darajasini belgilab beradi;
- pirovard natijamizning baholash me'yorini belgilaydi va h.k.

Boshqaruvning bosh maqsadi-faoliyat jarayonini oqilona tashkil etish,kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish, yangi texnologiyalarni qo'llash yo'li bilan tashkilotning foydaliligi va daromadlilagini taminlash.

Boshqaruv maqsadi - aynan, shu maqsad kishi faoliyatini, o‘z orzularini ushalishiga yo'naltiradi. Biz dastlab o‘zimizning oldimizda turgan maqsadimizni aniqlab olamiz, so'ngra esa shu maqsadimiz:

- bo'lajak harakatlarimizni oldindan aniqlab beradi;
- faoliyatimizning ustuvor yo'nalishini belgilaydi;
- faoliyatimizni aniq soha, ishga yo'naltiradi;
- u yoki bu faoliyatimizning zarurlik darajasini belgilab beradi; pirovard natijamizning baholash me'yорini belgilaydi va h.k.

Maqsadning ilmiy asoslanganligi va to‘g‘ri belgilanganligi boshqarish uchun o‘ta zarur. Chunki aynan shu maqsadga binoan:

- boshqarish funksiyalari;
- boshqarish usullari;
- boshqarishning tuzilmaviy tarkibi;

lavozimlarni belgilash va kadrlarni tanlash kabi muhim masalalar yechiladi. Boshqaruv maqsadi quyidagi talablarga javob berishi lozim.

Respublika Oliy majlisi sessiyalarida qabul qilingan qonunlarda O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga har tomonlama madad berish, ularning samarali ishlashi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ular yordamida mamlakat iste'mol bozorini yuqori sifatli tovarlar bilan to'ldirish masalalariga alohida e'tibor berilgan. 1995-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi sessiyasida qabul qilingan «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risidagi qonunda kichik biznes bilan shug'ullanuvchi ish bilarmonlarga yanada ko'proq imtiyozlar berildi. Bu o'z navbatida kichik biznes bilan shug'ullanuvchi ish bilarmonlarning ishchanligini yanada faollashtirishga, mamlakat yalpi milliy mahsuloti hajmini oshirishga, inflyatsiya jarayonlarini sokinlashtirishga, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va rivojlantirishga keng imkoniyat yaratdi. Kichik biznesning mohiyati va iqtisodiyotda tutgan o'rni juda katta.

Hozirgi paytda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida mulkni davlat tasarrufidan xususiylashtirish, qo'shma korxonalar tuzish, korxonalarни ochiq tipdagи aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirish va ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda va mustaqil hamdo'stlik davlatlarida biznes haqidagi maqolalar, adabiyotlar 60-yillarning o'rtalarida paydo bo'lgan. Lekin, u paytdagi barcha maqolalar tanqidiy tarzda yozilar edi. Chunki biznesni asosini xususiy mulkchilik tashkil etar edi. Xususiy mulkchilik esa, o'sha paytda bizning mafkuramiz uchun butunlay yot narsa edi. Lyokin biznesni fan tariqasida o'rganish faqatgina 90-yillarning boshlarida bozor munosabatlariga asta - sokinlik bilan o'ta boshlagan.

**ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ АСОСИЙ  
АДАБИЁТЛАР:**

- 1.L.R.Dabay and others/Principles of business/2012.600p.
- 2.Jeef Madura/ Introduction to business/ Florida Atlantic University/Paradigma Publishing

**IT: BUGUNGI DUNYONING ASOSIY OMILI**

**Pardabayeva Mohina Sanjar qizi**  
*Davlat universiteti IT fakulteti 2-bosqich talabasi*

IT (Information Technology) bugungi dunyo uchun ajralmas qismga aylandi. U hamma joyda - uyimizda, ishimizda, hatto ko'chadagi trafik chiroqlarida ham mavjud. IT bizning hayot tarzini o'zgartirdi, biznesni rivojlantirdi va dunyoni bir-biriga yaqinlashtirdi.

IT sohasi quyidagi asosiy sohalarni o'z ichiga oladi:

- Kompyuterlar: Shaxsiy kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar va mobil telefonlar - IT dunyosining asosiy qurilmalari.
- Dasturiy ta'minot: Dasturlar, operatsion tizimlar, mobil ilovlar va veb-saytlar bizning kompyuterlarimizga nima qilishini aytadi.
- Tarmoqlar: Internet, Wi-Fi va mobil tarmoqlar bizni bir-birimiz bilan va ma'lumotlar bilan bog'laydi.
- Ma'lumotlar bazasi: Bu ma'lumotlarni saqlash, qidirish va boshqarish uchun ishlataladi.
- Kiberxavfsizlik: Bu kompyuter tizimlarini va ma'lumotlarni xakerlardan va boshqa tahdidlardan himoya qiladi.

ITning bizning hayotimizga ta'siri shunday:

- Aloqa: IT bizni dunyoning istalgan burchagidan bir-birimiz bilan aloqa qilish imkonini beradi. Video qo'nig'iroqlar, ijtimoiy tarmoqlar va elektron pochta aloqa qilishning samarali vositalariga aylandi.
- Ta'lim: Onlayn ta'lim, elektron kitoblar va virtual o'quv materiallari ta'lim olish imkoniyatini kengaytirdi.
- Tijorat: IT biznesni avtomatlashtirishga, ma'lumotlarni tahlil qilishga va xaridorlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashga yordam beradi. Elektron tijorat saytlari va mobil ilovlar orqali xarid qilish qulaylashdi.
- Sog'liqni saqlash: Tibbiy texnologiyalar kasalliklarni tashxislashni va davolashni yaxshilashga yordam beradi. Teletibbiyat bemorlarga masofadan turib shifokorlarga murojaat qilish imkonini beradi.
- Ko'ngil ochish: O'yinlar, musiqa, filmlar va televizorlar IT-ning rivojlanishi tufayli o'zgardi. Onlayn o'yinlar va musiqa platformalari tobora ommalashib bormoqda.